

ZAMAXSHARIYNING ARAB TILSHUNOSLIGIDAGI O‘RNI

Guzorova Mohinabonu Tohir qizi

Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti

Arab tili filologiyasi va tillarni o‘qitish arab tili

2-kurs talabasi

Xashimova Mohira Abdusattarovna

TGFU arab tili o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariyning arab tili va adabiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi, uning hayoti, ilmiy maktabi, yaratgan asarlari, tilshunoslikka kiritgan yangiliklari hamda arab olimlari tomonidan berilgan yuksak ta’riflar tahlil qilinadi. Maqolada “Al-Kashshof”, “Al-Mufasssal”, “Asos al-balog‘a” kabi asarlarining ilmiy ahamiyati, ularning arab olamidagi o‘rni va ta’siri yoritiladi.

Abstract : This article examines the contribution of Mahmud az-Zamakhshari to Arabic linguistics and rhetoric. It discusses his life, scholarship, linguistic innovations, major works, his influence on Arabic grammar and Qur’anic exegesis, and the evaluations made about him by renowned Arab scholars. Special attention is given to his masterpieces “Al-Kashshaf,” “Al-Mufasssal,” and “Asās al-Balāgha.”

Kalit so‘zlar: Zamaxshariy, arab tili, nahv, balog‘at, lug‘at, Asos ul-balog‘a, Al-Kashshof, Al-Mufasssal.

Mahmud az-Zamaxshariy (1075–1144) — Movarounnahr tuprog‘idan yetishib chiqqan eng ulug‘ allomalardan biridir. U arab tili grammatikasi, lug‘atchilik, balog‘at, Qur’on tafsiri, hadis va fiqh ilmlarining yirik namoyandasi bo‘lib, arab olamida “Jarulloh” (Allohning qo‘shnisi) unvoni bilan ulug‘langan. Arab va ajam olimlari uni “Arab va g‘ayri arablar ustoz” deb atashgan.

Zamaxshariy o‘z asarlari bilan nafaqat musulmon sharqida, balki butun arab

dunyosida ilmiy maktab yaratgan, uning asarlaridan hozirgacha Al-Azhar kabi yirik oliy dargohlarda foydalaniladi.

Mahmud az-Zamaxshariy 1075-yil 19-mart kuni Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Bolaligida oyog'i shikastlanib qolganligi sabab yog'och oyoq bilan yurgan. Bu holat uni jismoniy mehnatdan chetlashtirib, ilmga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirgan.

U Buxoro, Xuroson, Marv, Nishopur, Isfahon va Hirot madrasalarida ta'lim olib, arab tili grammatikasi (nahv), balog'at va bayon, hadis va fiqh, Qur'on ilmlari, arab adabiyoti, xattotlik, arab urf-odatlar va maqollari kabi fanlarda yuksak bilim egallagan.

Mahmud az-Zamaxshariy ilm izlab Arabiston, Iroq, Yaman, Shom, Eron kabi yurtlarni kezzagan. U Makkada uzoq vaqt yashagani uchungina "Jarulloh" unvoniga sazovor bo'lgan. Bu sayohatlar natijasida u arab qabilalarining tirik tilini o'rgangan, lug'aviy boylklarni to'plagan, Qur'on tilining tirik manbalarini bevosita o'rgangan.

Zamaxshariy 50 dan ortiq asar yaratgan bo'lib, ularning ko'pchiligi arab tiliga oid. "Al-Kashshof" — Qur'on tafsirining durdonasi. Bu tafsir arab dunyosida eng fasohatli, eng balog'atli, eng chuqur lug'aviy tahlilga ega manba deb tan olingan. Zamaxshariy unda Qur'on oyatlarining lug'aviy ildizlari, grammatik o'rni, balog'at san'atlari, bayon uslubi kabi jihatlarni ilmiy asosda sharhlagan. Al-Azhar talabalari hozirgacha Qur'onni aynan "Al-Kashshof" asosida o'rganadilar.

"Al-Mufasssal fi san'at al-i'rob" — arab grammatikasining eng muhim manbasi. Bu asar arab sintaksisi va morfosintaksiyasining eng mukammal kitobi hisoblanadi. U bu kitobni 513-hijriy yilning oxirlarida yozishni boshlagan va uni 515-yil (milodiy 1122-yil) boshida tugatgan, demak, 1 yil 4 oydan kamroq vaqt talab etga Zamaxshariy arab tilining eng nozik qoidalarini tartibli ravishda bayon qilgan. Asar 19-asrda nemis tiliga ham tarjima qilingan. Ko'plab grammatikachilar "Al-Mufasssal"ni Sibavayhning kitobidan keyingi eng muhim grammatik manba deb e'tirof etgan.

"Asos al-balog'a" — arab tilidagi eng qadimiy lug'atlardan biri. Bu asar

quyidagi jihatlari bilan mashhur:soʻzlarning asosiy maʼnosi,Qurʼondagi qoʻllanishi,hadis va hikmatlardagi tazohuri,sheʼriy misollar,majoziy maʼnolar bayon etilgan.Eng muhim jihati — soʻzlar alifbo tartibida berilgan eng qadimgi lugʻat hisoblanadi.Zamaxshariy bu asarda soʻz tanlashning nutq balogʻatidagi oʻrnini alohida koʻrsatadi.

Az-Zabidiy (زبيدي) “U arab tili va bayon ilmida etuk edi. Uning lafzlari qisqa, ammo maʼnolari teran edi. Har bir iborasi fasohatli boʻlib, agar bir harf qoʻshilsa yoki ayrilsa, matnning tartibi buziladi. Uning kitoblariga oʻxshashi yoʻq.” (Taj al-ʻArus)

Ibn Xallikon "Agar arab boʻlmagan odamdan bunday ilm chiqsa, arablar uchun iftixordir. Agar u boʻlmaganida, arab grammatikasi unutilib ketishi mumkin edi." Deya Ibn Xallikon Zmaxshariyga taʼrif bergan va “Zamaxshariy arab tilining cheksiz dengizidir. ‘Al-Kashshof’ esa tafsirlar orasida eng fasohatli va eng balogʻatli durdona.” (Wafayāt al-Aʼyān)

Yoqut Hamaviy “U arab tilining nozik tomonlarini eng chuqur anglagan imom edi. ‘Asos al-balogʻa’ lugʻatchilikning eng mustahkam poydevorlaridan biridir.” (Muʼjam al-Udabāʼ)

As-Samʼoniy “Zamaxshariyning nutqi oʻlchovli, maʼnolari hikmatli, iboralari balogʻatli edi. U ilmda benazir martabaga ega edi.”(Ansāb)

Zamaxshariy:Arab grammatikasida yangi maktab yaratdi.Fasohat va balogʻat mezonlarini tizimli shakllantirdi.Qurʼon tafsirida lugʻaviy tahlil metodini mukammallashtirdi.Lugʻatshunoslikda metaforik maʼnolarni tizimli izohladi.Arab tilining tirik ogʻzaki manbalariga tayanib, lugʻatni boyitdi. Uning asarlari:islom olamida,ilmiy dargohlarda,zamonaviy arab universitetlarida hozirham asosiy manbalardan biri sifatida oʻqitiladi.

Mahmud az-Zamaxshariy oʻzining ilmiy salohiyati, ulkan merosi, tilshunoslikdagi qomusiy bilimlari bilan arab dunyosida tengsiz alloma sifatida tan olingan. Uning yaratgan asarlari bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan, balki arab tili, tafsir va balogʻat ilmlarining markazida turadi.

Arab olimlarining yuksak ta'riflari esa Zamaxshariyning ilmiy mavqei naqadar ulkan bo'lganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mufaṣṣal fī ṣan'at al-i'rāb of Abū al-Qāsim az-Zamaḥṣarī (Died 1144 A.D.) – a Masterpiece of Arab Grammar". Arab Scientific Heritage Journal. 1 (1): 43–51. ISSN 0080-3545..
2. Zaidan J., Tarix al-Adab al-Arabiy.
3. Arab ilmiy merosi maqolalari (Arab Scientific Heritage Journal).
4. O'zbekiston nashrlaridagi Zamaxshariy tadqiqotlari.
5. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO‘JAZ GRAMMATIKMANBA.(2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*,3(4),85-88.
<https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
6. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: “RISALATUN FIN-NAHV” ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA’LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
7. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.
8. Jo‘rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
9. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit" Malak" In The Epic" Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals*, 2(9), 493-498.
10. RAXIMJONOV, M. (2025). PUBLIC OPINION ABOUT KHOJA AKHRARI VALIA AND MIRZA ULUGBEK. *The Journal of Interdisciplinary Human Studies*, 1(3), 73-77.
11. Nugmanovich, R. M. Self-education And Self-improvement. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 998-1001.

12. Турсуналиева, М. А. (2021). “ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО” ДОСТОНИНИНГ НАЪТ ҚИСМИНИНГ БЕРИЛИШИ (ОГАХИЙ ТАРЖИМАСИ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ АСОСИДА). *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 357-360.
13. Musaev, I. X. (2025, December). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING ESTETIK VA FALSAFIY TALQINI SAIDBEK HASANOV TADQIQOTLARIDA. In *Conferences* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-70).
14. Victoria, M. (2022). Peculiarities of the functioning of borrowings in the media of the arab countries.
15. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahv” asarining Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari: Tekstologik va metodologik tahlil. Oriental Journal of Philology*, 6(13), 588–599. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-I3-60>
16. Жураева, С. Х. (2024). Interaction of youth slang and cultural values of the people. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 119-126.
17. Жураева, С. Х. (2024). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОЛОДЁЖНОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(2), 531-536.
18. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she’riyatda Bobur g‘azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.